

3. I.A. Karimov. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh.: “Sharq” nashriyoti. 1997, 42-bet.
4. Davletshin M.G. va boshqalar. qobiliyat va uning diagnostikasi. - T.:O‘qituvchi, 1997. -134 b.
5. E. G‘oziev, G. To‘laganova. Pedagogik psixologiya asoslari. O‘quv metodik qo‘llanma. T.: Universitet, 1997. 80 b.

## **INKLYUZIV TA’LIMNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI**

**Abdirayimov Akbarali A'zamjon o'g'li  
Sarimsaqov Azimjon A'zamovich**

*University of Business and Science universitet talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, inklyuziv ta’lim asosini tashkil etuvchi elementlar, o‘zbek hamda chet el olimlarining inklyuziv ta’lim to‘g‘risidagi g‘oyalari, uning tahlili bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Inklyuziv ta’lim, ta’lim maqsadlari, ta’lim samaradorligi, inklyuziv ta’lim tahlili, psixokorreksiyalash usullari.

Bugungi kunda yosh avlodni yuksak ma’naviyatli qilib shakllantirish, mustaqil mamlakatimizning ishonchli va intelektual salohiyatli fuqarolari etib tarbiyalash uzlucksiz ta’lim tizimining dolzarb vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Darhaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi uchun jamiyatning institutlari mas’uldir. Ayniqsa, barkamol avlodni shakllantirishning amaliyotini ta’minalashda, bu boradagi ilmiy muammolarning yechimini topish, olg‘a surilgan nazariy xulosa va tasviyalarni ta’lim-tarbiya amaliyotiga tadbiq etish jamiyatimizning ota-onalar, tarbiyachi-o‘qituvchilar uzlucksiz ta’lim tizimi oldiga qo‘yadigan davlat buyurtmasini samarali bajarilishi garovidir.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarning ta’lim va tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiyligi va maxsus ta’limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo‘lib, buning natijasida nogironligi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish va ularga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ilmiy o‘rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo‘lib bormoqda. Shunga ko‘ra, turli yosh guruhlari va

toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo’llab-quvvatlash zarur.

Ma’lumki, shaxs taraqqiyotida o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini qamrab oladi. Aynan mazkur jarayonda shaxsda muloqotga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarini o‘rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Ayniqsa shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonidagi muloqotdagi qiyinchiliklar hozirgi kunda psixologiya fanida qo‘yilayotgan muhim masalalardan biri ekanligi hammamizga ayon. Muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi. Muloqot-odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi-bu o‘zini-o‘zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o‘ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto‘g‘ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) Hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsiyal muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) Muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a’zoning qulay pozitsiyasini ta’minalashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) Insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyuştirish.

4) Shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan ishbilarmonlik o‘yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, D.B.Elkonin, A.V.Zaporojes, M.I.Lisina tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri-bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojes va M.I.Lisinalar tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

1) E’tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo‘ladi;

2) Kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug‘iladi;

3) Avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug‘iladi;

4) Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolaning rivojlanishi ko‘p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma’naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta’lim ta’siriga bog‘liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko‘ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko‘p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Alovida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola ham o‘qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo‘lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Bunday bola ko‘proq mexanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi va boladan javob, quvонchli qoniqish juda kam bo‘lib, bu bir tomonlama charchoqqa olib keladi. Imkoniyati cheklangan yoshlarni ta’lim-tarbiyaviy muhit hamma vaqt yaxshi, mo‘tadil bo‘lishi, hamisha alovida e’tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim. Bola ta’lim-tarbiyasi haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobi, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to‘g‘risida yozilgan ilmiy va ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alovida yordamga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta’lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda kasb-hunar o‘rganish, ilm olishga qiziqish boshqalarga nisbatan kuchliligini ta’kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning ta’siri haqidagi qarashlari tahlili keyingi avlod uchun yorqin yulduz kabi yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim bu - nogiron bolalarni me’yoriy rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olishidir. Bunday amaliyotda alovida ta’limga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan birgalikda o‘sib-ulg‘ayishlari va rivojlanishi, muntazam ta’lim muassasalariga borishlari va ularda do‘stlashishlari mumkin.

Alovida ta’limga muhtoj bolalarni ilk yoshdan tashxis qilish, ta’limga tayyorlash, psixologik, tibbiy-pedagogik yordamlarni kompleks yo‘naltirilgan holda sifatli tashkil etish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumta’lim davlat standartlarini maxsus ta’limning barcha yo‘nalishlariga moslashtirish ishlari jadal olib borilmoqda.

Respublikamizda alohida ehtiyojli bolalar bilan korreksion ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ishlarni olib borish, ijtimoiy jamiyatga erta moslashtirish, imkoniyatlaridan foydalanib o‘z-o‘ziga xizmat qila oladigan qilib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzab masalalaridan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda 87 ta maxsus maktab va maktab-internatlar mavjud bo‘lib, ushbu ta’lim muasasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shartsharoitlar mavjud. Ammo ko‘plab sabablarga ko‘ra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda o‘qishmoqda yoki ayrimlari esa batamom ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus ta’lim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada bo‘lsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sog’lom muhitda ta’lim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida ko‘plab kiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smlarning yopiq-segregatsion ta’lim tizimida o‘qitilishining ko‘plab salbiy oqibatlarini yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olindi.

Maxsus extiyojli bolalar ham jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, ular ta’limida alohida yangicha yondashuv maydonga kelganligi ma’lum bo‘ldi. Bu ta’lim tizimlari Integratsion hamda Inklyuziv ta’lim tizimi deb ataldi.

Alohida ta’lim ehtiyojli bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ota-onalar va o‘qituvchining teng hamkorlikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. YUNISEFning inklyuziv ta’lim bo‘yicha tavsiyalaridagi “Oilaning alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar ta’limida butun hayoti, ayniqsa, rivojlanishining ilk davrlaridagi ishtiroki muhim rol o‘ynashi, ota-onalar va mahallaning jalg etilishi sinfdan tashqarida ham inklyuziv ta’limning sifati uchun muhim ekanligi va ota-onalar va maktab o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarning bolalarning hayotiy pozitsiyasi va ta’lim sohasidagi yutuqlariga ta’sir etishi”, “Bu nafaqat alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar, balki ota-onalar, sinfdoshlar, pedagoglar va maktab uchun ham foydali” ekanligi kabi qator omillar inklyuziv ta’lim sharoitida maktab va ota-onalar hamkorligining dolzarbligidan dalolat beradi.

Inklyuziv ta’lim ehtiyojiga ega bolalarni uy ishlariga jalg qilish dahldorlik va mas’uliyat hislarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Eng og‘ir rivojlanish buzilishiga ega bola ham nimanidir amalga oshirishi, qo‘lidan kelgancha buyumlarni tartibga keltirishda, idish-tovoqlarni yuvishda, taom tayyorlashda, ko‘chatlar ekishda va hokazo ishlarda qatnashishi mumkin.

Ota-onalar dars mashg‘ulotlarida ham ishtirok etib, bolaning yutuqlaridan quvonayotganligini, unga bo‘lgan ishonchini amaliy tarzda namoyon etishi kerak. Olib borilayotgan ta’lim jarayoniga o‘z munosabatini bildirish, farzandining

olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishiga ko‘maklashishi ota-onaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ota-onalarning faolligini oshirish maqsadida ta’lim maskanida trening mashg‘ulotlari, davra suhbatlari ham maktab hayotida muhim o‘rin tutadi. Bunday mashg‘ulotlarni ko‘p marotaba o‘tkazish natijasida o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga va oilaning muqaddas ekanligiga oid bilimlari rivojlanadi. Sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘zaro do‘stona muhit yanada mustahkamlanadi. Jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilmoqda.

Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga to‘liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo‘natgirilgan qo‘srimcha ta’lim xizmatini ko‘rsatish mas’uliyatidan ozod etilmaydi. AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta’lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan.

Inklyuziv ta’lim amaliyoti tayanadigan bosh g‘oya shundan iboratki, bu ta’lim alohida olingan har bitta o‘quvchining o‘ziga xos tomonlarini qabul qilishi va hisobga olishi kerak, demak ta’limni har bir bolaning maxsus ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etish lozim. Mavjud maxsus ta’lim tizimi amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv faqat zarur holatlardagina qo‘llanadi. Inklyuziv maktablarda esa har bitta bola o‘qishda yaxshiroq natijalarga erishish imkonini beradigan psixologik yordam, e’tibor, kerakli shart-sharoit bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim. Darhaqiqat bizning maktablarimiz inklyuziv mакtab bo‘lishi va ularda inklyuziv ta’lim olib borilishi bugungi kunning dolzarb yo‘nalishidir. Yangi umumiylar ta’lim dasturi alohida ehtiyojga ega bolalar muvaffaqiyatli o‘zlashtira olishi uchun qulay sharoitlarni yarata olishi va shunga mos o‘zgartirishlar kiritilishi lozim. Inklyuziv ta’limning asosiy tarkibiy qismi sifatida va amalga oshirish borasida eng muhim elementlaridan biri bo‘lgan psixologik-pedagogik hamrohlikdir. Ta’lim muassasasi koordinatorlarining (yoki resurs o‘qituvchilarining) faoliyatida aynan pedagogik-psixologik hamrohlik talab etiladi. Ta’limda inklyuziv jarayonlarga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishda ta’lim muassasasidagi koordinatorlarning (yoki resurs o‘qituvchilarining) faoliyati katta ahamiyatga ega. Ularning faoliyati asosan “alohida” bola va uning oilasini ta’lim tizimiga joriy etish jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim yo‘liga qadam qo‘yayotgan ta’lim muassasasining rahbariyati ta’lim jarayonining barcha qatnashchilari ota-onalar, bolalar, pedagoglarning

yangi sharoitga moslashuvi va hamkorligini ta’minlashi lozim. Inklyuziv ta’lim amaliyoti mutaxassislardan yangi bilimlar va malakalarni talab qiladi. Bunday hollarda mutaxassislar nafaqat pedagogik va psixologik ta’limga va ish tajribasiga ega bo‘lishlari, balki maxsus pedagogika va psixologiya kabi sohalarda ham yuqori kasbiy malakaga ega bo‘lishlari talab qilinadi. Mana shuning uchun ham taklif etilayotgan yangi inklyuziv ta’lim modelini amalga oshirishda inklyuziv amaliyotga jalb qilingan ta’lim muassasalari mutaxassislarining psixologik-pedagogik hamrohlik qilishlari ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘qituvchining ta’limga inklyuziv yondashuvni amalga oshirishga psixologik tayyorligi deganda biz yuqori motivatsion imkoniyatni ta’minlashga imkon beradigan ijtimoiy, axloqiy, psixologik va kasbiy fazilatlar va qobiliyatlarning kombinatsiyasi bo‘lgan yaxlit, shaxsiy ta’limni tushunamiz. Biz inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni maqsadli tayyorlashning ustuvor jihatlarini kasbiy muhim sifat sifatida bag‘rikenglikni rivojlantirish, o‘quvchilarning ob’ektiv qiyofasini taqdim etish, turli toifadagi bolalar bilan o‘zaro munosabatlarning xususiyatlarini bilish deb hisoblaymiz. nogironlik, shuningdek, o‘qituvchilik amaliyoti davomida bunday bolalar bilan o‘zaro munosabatlarning shaxsiy tajribasini olishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. Ture Yonsson. Inklyuziv ta’lim (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). YUNESKO xalqaro tashkiloti «Opereyshen Mersi» Xalqaro Tashkiloti, Respublika ta’lim markazi. Toshkent, 2003.
4. Devid Bayn. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalarni baholash. Dastur va ko‘rsatmalar. Kanada. Albert universitetining pedagogika fakulteti, 1991.
5. Kristin Maylz. Kanada. Jamiyatdagi nogiron odamlarni o‘qitish. Maktab o‘qituvchilariga qo‘llanma, 1991